



UDK:811.541

Iroda XOLIQOVA,
Alfraganus universiteti magistranti
E-mail: irodaxoliqova88@gmail.com.

PhD G.Bahodirova taqrizi asosida

“QO‘RQMA” ROMANIDA VOQEELIK VA QAHRAMON ICHKI RUHIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romanidagi voqealar tasviri hamda ushbu voqealiklar silsilasida qahramon ichki ruhiyatining ochib berilishi romandan keltirilgan misollar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ruhiyat, badiiy psixologizm, g‘ayrushuriylik, ong oqimi, roviy, badiiy g‘oya, tasvir, syujet, ruhiy olam, xarakter.

REALITY AND THE INNER SPIRIT OF THE NOVEL “DO NOT BE AFRAID”

Annotation

This article analyzes the depiction of events in Javlon Jovliyev’s novel “Don’t Be Afraid” and the revelation of the hero’s inner state in this cycle of events using examples from the novel.

Key words: Psyche, artistic psychologism, unconscious, stream of consciousness, narrator, artistic idea, image, plot, spiritual world, character.

РЕАЛЬНОСТЬ И ВНУТРЕННИЙ ДУХ ГЕРОЯ В РОМАНЕ “НЕ БОЙСЯ”

Аннотация

В статье анализируется изображение событий в романе Жавлона Жовлиева “Не бойся” и раскрытие внутреннего состояния героя в этом цикле событий на примерах из романа.

Ключевые слова: Психика, художественный психологизм, бессознательное, поток сознания, повествователь, художественная идея, образ, сюжет, духовный мир, персонаж.

Kirish. Muhtaram prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning “Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi”, deb aytgan fikrlari hayotimizda adabiyot yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlarning g‘oyat ahamiyatli ekanligini isbotlaydi. Shunday ekan, bugungi kunda o‘zining sarmahsul ijodi, shuningdek, katta iqtidori bilan bir qancha adabiyot muxlislarining e‘tiboriga tushayotgan talaygina san‘atkorlarning ijod mahsullarini e‘tirof etmaslik mumkin emas. Ular orasida ma‘naviy-ruhiy mavzularda qalam tebratgan Tog‘ay Murod, Murod Muhammad Do‘st, Xayriddin Sulton, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Isajon Sulton, Javlon Jovliyev kabi ijodkorlarni adabiyot olamida o‘zining badiiy qiyofasini yarata olgan adiblar deyish mumkin. Ularning ijodini kuzatar ekan, istiqbol davrining xos xususiyatlaridan biri – inson ko‘ngil kechinmalarining tasviriga alohida e‘tibor berilganiga guvohi bo‘lasiz. Zotan, Zatonkiy ham: “Aynan individ ongi orqali aks ettirilgan dunyoni asl holicha tasvirlash XX asrning eng yorqin badiiy kashfiyotlaridan biri bo‘ldi”[15], – deb, shaxs ongi orqali tushunilgan davrni eng buyuk yaratilardan biri hisoblaydi. Biroq, inson ruhiy kechinmalarini oxirigacha tushunish, anglash, ancha murakkab, ba‘zan imkonsiz. Chunki insonning aqli bunga o‘zlik qiladi. Bu haqida hatto, “Qur‘oni Karim”da ham shunday deyiladi: “(Ey Muhammad alayhissalom), Sizdan ruh-jon haqida so‘raydilar. Ayting: “Ruh Yolg‘iz Parvardigorim biladigan ishlardandir”. Sizlarga juda oz ilm berilgandir (AL-ISRO surasi, 85-oyat). Izohi shundan iborat: Ushbu oyatda O‘lo‘h taoloning hatto O‘z payg‘ambarlariga ham ma‘lum qilmagan ishlari borligi bayon etilib, barcha insoniyat bilishi mumkin bo‘lgan bilim-ma‘rifat juda oz narsa ekan ta‘kidlanadi”[9].

Ammo, adabiyot ko‘magida inson ichki ruhiyatida yuz berayotgan hodisotlarni ma‘lum bir darajada tafakkur bilan

bilish imkoniyati mavjud. Zotan, sinchkov adabiyotshunos U.Normatov ta‘kidlaganidek, “Inson va uning tabiati, qalbi, ruhiyati haqiqatini kashf etishda hech bir soha adabiyot bilan tenglasha olmaydi, uning o‘rmini bosa olmaydi”[7]. O‘z navbatida dunyoga inson ongi va qalbi orqali nazar tashlash badiiy adabiyot uchun ham eng buyuk kashfiyotlardan biri bo‘lib, yangidan yangi asarlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Inson adabiyotning tasvir predmeti ekan, uning ruhiyatisiz adabiyotni yaxlit, bir butun holda tasavvur etish mumkin emas.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. M.Abdurahmonovanning “Ruhiy dunyo tasviri”, Q. Yo‘ldoshevning “Yoniq so‘z”, H.Umurovning “Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi”, M. Qo‘chqorovanning “Badiiy so‘z va ruhiyat manzaralari”, U.Normatovning “Umidbaxsh tamoyillar”, B.Karimovning “Ruhiyat alifbosi” kitoblarida inson ko‘nglining, ruhining sir-asrorlarini o‘lchash g‘oyat mushkul ekanligi, badiiy adabiyotda ruhiyat masalalarining yechilishi nisbatan osonroqligi, bu yo‘lda muallif mahorati kabi nazariy ma‘lumotlar yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Muammoni o‘rganishda psixologik va qiyosiy-tipologik, analitik tahlil usullari qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar. Shaxs xarakteri, uning ruhiyati bilan bog‘liq o‘ziga xosliklar ko‘p jihatdan u yashayotgan muhit shart-sharoitlari bilan bog‘liqdir. Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romanida bosh qahramon – muhit bilan chatishib ketgan roviy bo‘lib, xuddi alahsirayotgandek, mudom hush va tush oraliqida yashaydi. Unda yozuvchining po‘rtanali qalb g‘alayonlari aks etib, voqealar roviyning o‘ngida sodir bo‘lyaptimi yoki tushida, ko‘pincha buni ajratib olish imkonsiz. Asarda qismati bilan olishayotgan, tarixning jumboqlari bilan

tillashayotgan, doimo tug'yonli fikrlab, ziddiyatli xayollar og'ushida yuradigan, ba'zida dono, ba'zan aljirayotgan kishidek so'zlayotgan inson qiyofasini ko'ramiz. Ma'lumki, hayotda izchillik, muntazamlik bo'lmaydi. Shuning uchun ham odam xayolni emas, xayol odamni yetaklab yuradi [14]. Roman til bilan ifodalab bera olmaydigan ong ostidagi, boshqasiga so'zlolmaydigan mayl-istaklar, iztiroblar, armonlarimizning uzuq-yuluq tasvirlaridan iborat. Muallif romanda adabiyotshunos M.Boboxonov ta'kidlaganidek, g'ayrushuuriylikni tasvirlar ekan, bu "voqealar haqida "ong oqimi" usulida hikoya qilish zamon va makon chegaralarini buzishga, bundan yuz yil avval Germaniyaga tahsil olishga ketgan o'zbek talabalari hayotida yuz bergan hodisalar bilan bugungi kunimiz voqealarini parallel tasvirlashga, kitobxon nigohini u voqeadan bunisiga sezdirmay ko'chirishga xizmat qilgan"[3]. Asar voqealari hali tug'ilmagani go'dakning taqdirini ostin-ustun qilib yuborgan va mislsiz fojiga aylangan dramatik hodisa – Germaniyaga ta'lim olishga ketgan yigit-qizlarni sotgan katta bobosining (Ko'lanka obrazi) qo'shgan hissasi atrofida ro'y beradi. To'g'ri, asarda Ko'lanka obrazi dinamik tarzda namoyon bo'lmaydi, biroq, qahramondagi g'ayrushuuriylik ta'sirida kitobxon uni yaqqol ajratadi.

Romanda real hayotda ro'y bergan voqeliklar roviyning ongida, hayolida jonlanadi, o'liklar tirilib, tiriklar bilan muloqotga kirishadi, ruh tanadan ajralib, bir-birini taftish etadi, turli asr odamlari bir-biri bilan yuzlashadi. Bir qarashda tartibsiz, mantiqsiz tuyulgan voqea-hodisalar tagida diqqat bilan qaralsa, buyuk rus ijodkori Pushkin ta'kidlaganidek, asarning o'z ichki qonuniyatlari asosida yondashilsa, ularda teran ma'no, botiniy tartib, mantiq borligi o'z-o'zidan ayon bo'ladi. Faqat buni anglab yetish uchun kitobxondan muayyan adabiy tayyorgarlik, ko'nikma talab etiladi [10]. Zotan, adabiyotshunos B. Karim ta'kidlaganidek, "Bu romanni fikrlab, xayol va aqlni ishga solib, ora-sira chalkash syujetning uzilgan iplarini ulab o'qish kerak"[5].

Muallif romandagi olti oylik go'dakning Allohga yulvorish sahnasida voqelikni chuqurroq aks ettirish, ya'ni qismatning achchiq va murakkab tomonlarini ko'rsatish uchun ichki monologdan mohirona foydalanganligini ko'rish mumkin: "Mening peshonamga nelarni ijod etding-a?! Qayerdan yog'ilmoqda buncha lan'atlar? Falakning qay tomonida berkingancha reja tuzar kir niyatda qora bulutlar?"[6]

Romanda muallif hislari bilan to'yintirilgan roviyning millatiga, Vataniga bo'lgan muhabbati, yoriga bo'lgan ishqiy hislari ham original bo'yoqlar bilan chiziladiki, uni o'qigan kitobxon qalbiga ham ushbu tuyg'u navo misoli kirib boradi. Haqiqatdan ham, mehr-muhabbat shunday ulug' tuyg'uki, ularda insonning takrorlanmas, chuqur individual holatlari o'ziga xos ravishda ko'rsatiladi. Nosir muhabbat va u bilan bog'liq his-tuyg'ularni roviy hayotida asosiy deb biladi. Qahramonning Vataniga bo'lgan muhabbati qanchalik kuchli ekanini quyidagi parchalarni o'qibog' anglash mumkin: Men Vatanni bir qizdek sevdim. Orziqish bilan, qizg'anish, g'uborsiz, goh hirs, goh maqtanchoqlik, goh mudroq, goh uyg'oqlik bilan, neki illatlar bor, neki ezguliklar, bari-bari bilan muhabbat qo'ydim[9]. Naqadar dahshat, umringda hech bo'lmasa bir marta Vataning uchun to'ka olmasang yosh! [15]

Muallif xalqimiz hayotining fojialarini yalang'och jihatlari bilan tasvirga oladi. Bu bilan u insonlarga qanday yashash kerakligini o'rgatishdan tamomila yiroq bo'lib, (zotan, qanday yashash kerakligini hech kim birovga o'rgata olmaydi) faqatgina ularni ogohlikka, uyg'onishga, befarq bo'lmaslikka chorlaydi. Jumladan, roman qahramoni bilan ro'y bergan bir voqeadan roviyning kuchli ruhiy g'alayon ichida qolganini kuzatishimiz mumkin:

Qahramonning qo'lga bir xat tushib qoladi. Unda bir asr oldingi talaba millati uchun o'qishga qasamyod qiladi.

Bundan ta'sirlangan roviy zamondoshlarini ham sinab ko'rishga jazm qiladi. Natijasi alamli bo'lib, ma'naviy tanazzul iskanjasi ichida qoladi. Tabiiyki, u voqelikni teran anglab, haqiqiy qahramonlar bilan qo'rqqoq, xoinlar kimligini chuqur his eta olardi. Ya'ni, roviyga tashqi muhit ta'sirida ichki ruhiyatida qo'zg'alish ro'y berib, bu o'zgarish yana tashqi olamga o'z ta'sirini ko'rsatayotgan edi. Zotan, H. Umurov ham buni shunday izohlaydi: "tashqi muhit xarakter ichki dunyosida qo'zg'alishlar, zilzilalar, kechinmalar uyg'otgani kabi, bu ichki dunyoning murakkab "sirlari" xarakter xatti - harakatlarini asoslashga, boshqarishga, tashqi muhit rivojiga turtki beradi"[12].

Men o'qishga juda qiziqyapman. Nemis tilini o'rganishim kerak. Otam yo'q, onam yo'q, ular davlatning paxtasiga qo'shib yonib ketishgan. Iltimos, ma'rifat uchun ehson qiling! Sadaqa so'rayapman, yuz ming o'qish uchun! Muruvvat qiling ming so'm kelajak uchun!"

Lo'liga cho'zilgan qo'l ma'rifat uchun qimirlamasdi.

Shahar ko'chalaridan birorta odam to'xtamadi, qizlar ustimdan kuldi, bolalar mazax qildi. Faqat bir bolali xotin nonga yetadigan pul berdi, mening gapimni tushunmadi, shekilli. "Shu pulni sadaqa qilaman", – deb olib qo'ygani uchungina berdi. "Ilm uchun beraman, bir bandaning o'qishini saqlab qolaman", deb emas.

Ilm-ma'rifat uchun odamlar sizga xatto qayrilib ham qaramaydi. [57-58]

Parchadan ko'rinyaptiki, tirikchilik dardidan bo'lak g'am-tashvishi bo'lmagan zamondoshlariga nisbatan ijodkorning hayrat va nafrati yashirinmagan. Adabiyotshunoslikda psixologik metodda yozilgan badiiy asardagi barcha kechinmalar, xususiyatlar bevosita muallifga aloqador bo'ladi.

Yozuvchi romanda roviyning psixologik holatlarini mayda tafsilotlarigacha mohirlik bilan tasvirlaydi. Syujet rivoji davomida uning o'ziga xos ruhiy dunyosini ochishga diqqat qiladi. Natijada kitobxon uning qismatidan qattiq ta'sirlanadi va uning ruhiy olamiga ko'chganini sezmay ham qoladi. Roviyni ruhiy dunyosidagi notinchlik, uning sevgi iztiroblari, haqiqat yo'lidagi izlanishlari, haqsizlikka qarshi isyon tuyg'ulari yozuvchi qalamida takrorlanmas ifoda kasb etgan.

Xarakterlar psixologiyasini yoritishda kuchli ruhiy va fiziologik jarayonlarni aks ettiruvchi yig'ining roli hamda vazifasi nihoyatda katta. Ma'lumki, inson yig'i orqali butun ruhiyatidagi og'ir yukdan o'zini halos bo'lgandek his etadi. A. Qodiriy ham hissiyotning a'lo ifodasi ko'z yoshidir, deb biladi. Shu sababli ham uning qahramonlari junbushga kelgan davrda ko'z yoshi to'kishni kanda qilmaydi. Jumladan, "O'tgan kunlar" romanida barcha qahramonlar hissiyotining to'laqonli holatlari ularning ko'z yosh to'kishi bilan bog'lanadi[1]. Ammo Javlon Jovliyev tamomila o'zgacha yo'l tanlaydi. Uning qahramoni boshqalardan farqli o'laroq yig'lash lozim bo'lgan o'rinlarda kulgu bilan kifoyalanadi. Ya'ni, u olti oyligida yig'ini qalbining ko'rinmas yeriga ko'mib, o'rini kulgu bilan almashtirgan: "...olti oylik – tilsiz go'dakligimda boshlandi bari.

...Shundan buyon faqat kulaman, janoza o'qidim hayqirib ko'z yoshlarimga.

Yig'ini butkul ko'mdim millatim mozorlariga[6].

Rovi qattiq iztirobga tushganida, qalbi ozorlanganida qattiq kulguga beriladi: "O'rgandim. Azoblarimni faqat kulgilar bilan ifoda etishni[23].

Yoki bobosining vafot etgani sahnasini olaylik. G'ayrushuuriy ravishda bobosining murdasi bilan qorbo'ron o'ynaganida ham alamdan, qayg'udan faryod chekib, tinimsiz kuladi. Bu tasvirlar har qanday kishi ko'ngliga ham mahzunlik, ham achinish hissini soladi. Qahramon ruhiy kechinmalarini

ziyraklik bilan kuzata olgan ijodkor qahramon holatini shunday jonli tasvirlaydiki, bundan ta'sirlanmaslikning iloji yo'q. Bu vaziyatda qahramon ruhiyatida yuz bergan portlash shunday ifoda etiladi: Meni tashlab ketma, bobo! O'limni yomon ko'raman. O'rning to'lmaydi....Tur, qorbo'ron o'ynaymiz, tur-a, tur, bobo!

“Qor ham yig'laydi, qo'ylar ham, xo'rozlar ham tovuqlar ham yig'laydi, bir men va panada tikilib turgan eshakqurtlargina kuladi....

Baqirib-baqirib kulaman, etigim qorni yerga uradi[16].

Ba'zi tadqiqotchilar roviyning yig'lay olmasdan doimi kulish xususiyatini tibbiyotda mavjud “Angelman sindromi” hastaligi bilan bog'lashga urunadi. Lekin biz bu fikrni ma'qullamadik. Chunki ushbu kasallik bilan og'rigan bemorlar sog'lom insonlardan ham aqlan, ham jismonan orqada qolishadi. Bizning qahramon esa boshqalarga o'xshamas aql sohibi. U o'zini hamda atrofidagi insonlarni real hayotda va xayol ko'zgusida ayovsiz taftish etadi, eng muhimi, o'tgan asr boshlarida xorijga ketgan talabalar dunyosini, orzu-istaklarini tahlil etib, zamona yoshlarining turmush tarzi bilan taqqoslaydi. Demoqchimizki, bunday qat'iyatli, his va fikrlarida sobit tura oladigan shaxsda “Angelman sindromi” tashxisining qo'yilishi biroz g'alatiroq, nazarimizda.

Qahramon psixikasini aniqlashda avvalo, uning ijtimoiy mavqeyini bilish juda muhim. M. Gorkiy psixikani aniqlashda sinfiy belgi asosiy va bosh omil ekanligini bejiz ta'kidlamagan[2]. Biroq, roviy ruhiyatini ochib berishda u mansub sinf xarakteridan ancha yuqorilaganini kuzatish mumkin. U tarixchi bobo va ikki oyoqda tik o'lishni istagan buvining nabirasi, yetti betayin amakining sag'ir jiyani edi. U ham amakilari kabi tayini yo'q, millatining kelajagi haqida zarracha qayg'urmaydigan, muhabbat atalmish sof tuyg'uga sohib bo'lolmasligi mumkin edi. Yoki chekinga tushdimi, chorasizman demadi. U o'zi mansub ijtimoiy tabaqadan anchayin yuqoriladi. U oilasi boshiga tushgan tavqi la'natlarni tozalashga go'dakligidayoq so'z bergan juda ulkan oshkora taftishchi, kurashchi edi.

Ma'lumki, ba'zi asar qahramonlari ruhiyatida dastlab sokinlikni, so'ngra esa portlashga o'xshash tug'yonlarni kuzatamiz. (“Qutlug' qon”da Yo'lchi) Ammo Javlon Jovliyevning roviysi hech qachon sokin ruhiy holatga ega bo'lmagan. U go'dakligidayoq haqiqatning tagiga yetish uchun o'zini qiyonoqlar, azoblar girdobiga tashlab, oilasi boshiga tushgan ko'rgulik sabablarini o'rganishga intiladi.

Rovi xarakteri, psixologiyasining rivojlanishi hali ona qornidaligidayoq oilasi boshiga tushgan tavqila'nat, maishiy turmushning real manzaralari va ijtimoiy hayotning yirik voqealari bilan chambarchas bog'liqlikda hal etilishi chuqur haqqoniylik kasb etadi. Demak, shaxsni bir butun holda tushunish ruhiyatning turli holatlarini ro'y-rost yoritib bilishni taqozo etadi. Shundagina ruhiy dunyoning yashirin, pinhoniy, mahfiy qirralari kishi ko'z o'ngida jonli gavdalanadi.

O'lim mavzusi adabiyot va san'atning abadiy mavzularidan bo'lib, inson shu muqarrar voqelikka doimo tayyor turishi uchun avvalo ruhan o'zini tarbiya qila olishi kerak. Bu jihatdan badiiy asarlar muhim ahamiyat kasb etadi. “Qo'rqma”da ham o'lim voqeasining tasvirlanishi qahramonning ruhiy dunyosini ochishga xizmat etgan. Qahramon olti oyligida ota-onasidan ayriladi. Bu ko'rgulik

chidolmay bo'zlab-bo'zlab yig'laydi. Muallif shu o'rinda mubolag'aga qo'l urub, go'dak yig'isini yetti qishloqqa eshittiradi. Ana shu kuni yig'isini ko'mgan roviy, taqdirning yozganidan isyon qiladi: “Ulardan o'n emas, bir men qoldim”, – deb qichqiraman, “Sutim”, deb baqiraman, “Quvvati kuchim”, deb o'kiraman[17].

Nosir shu voqea bilan birga yana bir hayot haqiqatini o'rtaga tashlaydi: Bizda tirikni emas, o'likni hurmat etarlar[17].

Xalqimizning azaldan urf-odat, an'ana hisoblamish, aslida illat bo'lmish turli aza marosimlari muallif tomonidan ayovsiz qoralangan.

Yoki ota-onasining o'limidan so'ng bobosidan ayrilgan roviyning qalbidan kechirgan og'riqlarini, ko'ngil iztiroblarini kitobxon ham sezmasdan qolmaydi, unga achinadi. O'limning daxshatini, achchiq haqiqat ekanligini yana bir bor his etadi.

–Meni tashlab ketma, bobo! O'limni yomon ko'raman. O'rning to'lmaydi! O'lim erkakni ko'tarmaydi., bobo. O'lim Vatan kabi bitta bo'ladi, o'lim bilan o'ynashib bo'lmaydi... Tur,-a, tur, bobo! [67]

Bir jihatga e'tibor qaratish lozimki, romanda ota-onasining, bobo-momosining yoki amakilarining o'limi ham oila boshiga kelgan tavqi la'natdan qutqara olmaydi. Asarda o'lim jumboqli voqelikning yechimi emas, bir sulolaning tugab-bitayotganining tasviridir. Yaqin insonlaridan birin-ketin ayrilayotganidan qattiq qiyonoq, azoblarga qolayotgan roviy yuz berayotgan ko'rguliklarning barchasiga sabab – katta bobosi tomonidan sodir etilgan XIYONAT, SOTQINLIK ekanligini yaxshi anglaydi. Xiyonatning badalini bir oila butun sulolasining o'limi bilan to'lashi shafqatsiz haqqoniylik usulida ifoda etilgan. Inson boshiga kelgan voqealarning hech biri shunchaki sodir bo'lmaydi. Nazarimizda, muallif bu dunyoda aybdor hech qachon jazosiz, qahramon mukofotsiz qolmaydi, demoqchidek. Zotan, Alloh taolo Anfo surasida marhamat qiladi: “Ey mo'minlar,...sizlarga ishonib berilgan narsalarga (ya'ni, dinga va boshqa har qanday omonatlarga)xiyonat qilmangiz!”(Anfo surasi, 27)[16]. Millat, Vatan ham bizga omonat. Hech bir zamonda ham unga qilingan hiyonat javobsiz qolmagan.

Xulosa va takliflar. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, inson kechinmalari juda murakkab. Uning oxiriga yetib bo'lmaydi. Negaki zamonlar osha shaxsning ongi, tushunchasi o'sib-o'zgarib borgani singari, qalbi ham o'zgarib boraveradi. Biroq muallif nazdida qancha yillar o'tsa-da, insonning millatiga, Vataniga bo'lgan mehr-muhabbati abadiy qolishi, nasldan - nasllarga o'tishi kerak. “Qo'rqma” romanida qahramonning ichki olamini, ahvol-ruhiyasidagi murakkab jarayonlar betakror tasvirlar bilan aks ettirilib, adabiyotimiz xazinasiga o'lmas xazina bo'lib kirdi. Romandagi voqeliklar garchi individual xususiyat kasb etgandek tuyulsa-da, biroq bularning tag zamirida butun boshli millat, xalq taqdiriga daxldor umumiylik turganini sezish qiyin emas. Nemis donishmandi I.V.Gyote ta'kidicha: “Har qanday san'at asarida, u xoh katta, xoh kichik bo'lsin, barcha voqealar mohiyatga borib taqaladi.” Mohiyat esa har qanday badiiy asarning ichki ustuni; ijodkor dunyoqarashi hamda imon-e'tiqodining ifodasidir[6]. Javlon Jovliyevning inson kechinmalarini kashf etishdagi ulkan mahorati yangi davrning yangicha uslubdagi yangi romani bo'lib keldi va uzoq yillar shunday bo'lib qoladi, degan umiddamiz.

ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonova M. Ruhiy dunyo tasviri. – Toshkent, O'zbekiston, 1977. – 32 b.
2. Горький А. М., Адабиёт ҳақида Т.: ЎзССР Давлат бадий адабиёт нашриёти, 1962. – Б.351
3. Boboxonov M. Hozirgi o'zbek romanlari strukturasi psixologizm muammosi: Filol. fan. dok-ri (DSc) diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 34 b.
4. Jovliyev J. Qo'rqma. – Toshkent: Nihol, 2020. – B. 368.

5. Karim B. Lirotragik roman – “Qo‘rqma” asari haqida // INFOLIB – ахборот-кутубхона маданияй, маърифий, илмий-оммабоп журналы, 2021. – №1. <https://einfo.lib.uz/index.php/2021/05/31/lirotragik-roman-qurqma/>
6. Karim B. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2018. – 364 b.
7. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2000. – 109 b.
8. Rustamova M. Nasrda ruhiyat tasviri // Sharq yulduzi. – Toshkent, 2005. – №1. – B.151-154.
9. Qur‘oni karim. O‘zbekcha izohli tarjima. Alouddin Mansur tarjimasi. – Toshkent: Cho‘lpon, 2004. – 544 b.
10. Quronov D. Romanning yangi umri. 2019. <https://quronov.uz>
11. Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi. – Toshkent: Fan, 1983. –148 b.
12. Umurov H. I. Saylanma. Birinchi jild. Risolalar. – T.: Fan, 2007. – B. 42.
13. Юнг К.Г. Очерки психологии бессознательного. – Москва: Когито Центр, 2013. – 466 с.
14. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. 547 b.
15. Затонский Д.В. Искусство романа и XX веку – Москва: Наука, 1986. – Стр. 534.
16. <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/actual/xiyonat-qilmang>
17. Bahodirovna, B. G. (2023). Kashtachilik leksikasining leksik-semantik tasnifi. Science and innovation, 2(Special Issue 5), 222-226.
18. Bahodirova Gulruh Bahodirovna. (2024). Interpretation of Embroidery Terms in Dictionaries. Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal of Education (2994-9521), 2(6), 981-983. <https://doi.org/10.5281/>